

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Baxodirova Shaxlo Baxodirovna**

**ABDULLA QODIRIY ASARLARIDAGI ARXAİK VA LAKUNAR  
BIRLIKLAR TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

UO‘K: 811.512.133'373:008+821.512.133.09

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on Philological Sciences**

**Baxodirova Shaxlo Baxodirovna**

Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunar birliklar tadqiqi .....3

**Bakhodirova Shakhlo Bakhodirovna**

Research on archaic and lacunar units in the works of Abdulla Qodiri.....25

**Баходирова Шахло Баходировна**

Исследование архаичных и лакунарных единиц в произведениях

Абдуллы Кадыри .....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Baxodirova Shaxlo Baxodirovna**

**ABDULLA QODIRIY ASARLARIDAGI ARXAİK VA LAKUNAR  
BIRLIKLAR TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3258 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti veb-sahifasining [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalining [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Xolmanova Zulxumor Turdiyevna  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna  
filologiya fanlari doktori, professor

Ubaydullayev Alisher Abdusalomovich  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 10.06 soat 10<sup>00</sup> daqiqa majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@www.tsuull.uz](mailto:monitoring@www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( 358 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ 2 ” 06 kuni tarqatildi.  
(2025-yil “ 2 ” 06 daqiqa ) daqiqa 2 - raqamli reyestr bayonnomasi).



Agas  
**H.A.Dadaboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
koti, filol.f.d., professor

S.Ashirboyev  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida milliy til taraqqiyotining ichki imkoniyatlarini belgilash, undan unumli foydalanish, konseptlarning lisoniy vositalarini aniqlash, adabiy til va sheva munosabatlarini tahlil qilish ona tilini takomillashtirishning zarur shartlaridan biri sifatida qaraladi. Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnikaviy sohalarda yuz berayotgan o'zgarishlar tabiiy ravishda tilda o'z ifodasini topmoqda. Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda yangi tushuncha, so'z va terminlarning yuzaga kelishiga zamin yaratmoqda. Xalqaro tillar, metatil maqomida taraqqiy topgan verbal muloqot vositalari ko'pgina tillar lug'at boyligiga tobora jadallik bilan kirib bormoqda. Shunday vaziyatda o'z qatlam birliklarini saqlab qolish, qo'llanish doirasini kengaytirish, tushunchalarning o'z qatlam doirasidagi lisoniy vositalarini aniqlash, tizimlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida tushuncha va so'z o'rtasidagi munosabat, lug'aviy ma'no, grammatik ma'noning ifodalanish darajasi, lug'aviy birliklar, grammatik shakllar ma'nosi yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Madaniyatlararo muloqotda lisoniy birliklar muvofiqligini ta'minlash, muqobili yo'q leksika, nomlanmagan tushunchalarni konseptual yo'nalishda tadqiq qilish antropotsentrik tilshunoslikning muhim masalalaridan biri sifatida belgilanmoqda. Turli tizimdagi tillarda konsept, tushuncha mos kelmagan o'rinlar bo'lgani kabi ularning lisoniy birliklar vositasidagi ifodasida ham nomuvofiqlik kuzatiladi. Bunday ziddiyat turli madaniyatlarning taraqqiyot darajasi, ijtimoiy muhiti, dunyoqarash va qadriyatlar xilma-xilligi bilan izohlanadi. Tushunchalarning lisoniy birliklar orqali to'liq ifodalanmasligi bir til doirasida, adabiy til va umumxalq tili o'rtasida ham kuzatiladi. Bunday nomuvofiqlik lingvokulturologiyada lakuna hodisasi sifatida tadqiq etilmoqda.

Mamlakatimizda o'zbek tilini rivojlantirish, davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish uni ichki imkoniyatlar hisobiga boyitish, o'z qatlam so'zlarini faollashtirish va ommalashtirishni taqozo etadi. O'zbek tilining shakllanishi qadimiy asoslarga ega bo'lib, hozirgi umumxalq o'zbek tili adabiy birliklar bilan bir qatorda so'zlashuv tili va shevalarga xos birliklarni o'z ichiga oladi. O'zbek adabiy tili ko'p asrlik ichki va tashqi taraqqiyot omillari asosida shakllangan. Ijtimoiy-siyosiy voqelik, iqtisodiy-madaniy taraqqiyotning lug'at sathida o'z ifodasini topishi hamda mazkur sathning o'zgaruvchan tabiati o'zbek tiliga fors-tojikcha, arabcha, mo'g'ulcha, rus-baynalmilal, ingliz-baynalmilal so'zlarining o'zlashishiga sabab bo'ldi. O'zbek tilining mavqeyini oshirishda o'z qatlam so'zlarini faollashtirish, adabiy til doirasida ommalashtirish, so'z shaklida mavjud bo'lmagan tushunchalarning shevalardagi leksik vositalarini keng qo'llash muhim qiymat kasb etadi. Shu jihatdan o'zbek adabiy tili va shevalari o'rtasida kuzatiladigan lakuna hodisasini, yozma manbalarda, badiiy asarlarda aks etgan eski qatlam so'zlarini monografik jihatdan tadqiq etish, lakunar birliklarni aniqlash va ommalashtirishda dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son O'zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida arxaizmlarning til tizimida tutgan o'rni, ijtimoiy funksiyalari, badiiy matndagi uslubiy xususiyatlari N. Blake, D. Crystal, M. Johnson, J. Smith, A. Baugh, T. Cable tadqiqotlarida yoritilgan<sup>1</sup>. A. Sidorov, K. Shatilov, V. Kozlova, T. Ivanova, Y. Petrov kabi rus olimlari ingliz tilidagi arxaizmlarning semantik-uslubiy xususiyatlari yuzasidan tadqiqot olib borganlar<sup>2</sup>. T. Korosteleva, X. Raximova rus tilshunosligida arxaik birliklarning adabiy tildagi o'rni va badiiy matndagi xususiyatlarini tadqiq qilganlar<sup>3</sup>.

Arxaizm masalasi turkiyshunoslikda eskirgan qatlam so'zlari sifatida o'rganilgan<sup>4</sup>. O'zbek tilshunosligida B. Bafoyev, E. Begmatov, N. Husanov, N. Uluqov, N. O'rmonova, S. Ziyotova, M. Matqurbonova, U. Mo'minova tadqiqotlarida tahlil etilgan<sup>5</sup>.

---

<sup>1</sup> Blake N. A History of the English Language. – London: Palgrave Macmillan, 1996; Crystal D. The Stories of English. – London: Penguin Books, 2005; Johnson M. Archaic Elements in Early Modern English Literature: Their Persistence and Function. PhD Dissertation, University of Oxford, 2008; Smith J. The Role of Archaic Lexis in Shaping English Literary Tradition. PhD Dissertation, Harvard University, 2012; Baugh A.C. & Cable T. A History of the English Language (6-e izd.). – New York: Routledge, 2013.

<sup>2</sup> Сидоров А.Н. Архаизмы в поэтике Шекспира: историко-лингвистический анализ. Дисс. ... канд. филол. наук. – М.: МГУ, 2010; Шатилов К. Архаический английский или в начале было слово? // LiveJournal, 2015; Козлова Е.П. Функциональные аспекты использования архаизмов в современной англоязычной литературе. Дисс. ... канд. филол. наук. – Л.: Санкт-Петербургский государственный университет, 2014; Петров В.С. Архаизмы в англоязычной дипломатической корреспонденции // КиберЛенинка, 2018. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/arhaizmy-v-angloyazychnoy-diplomaticheskoy-korrespondentsii>; Иванова Т.А. Архаизмы в английской литературе // КиберЛенинка, 2020. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/arhaizmy-v-angliyskoj-literature>.

<sup>3</sup> Коростелева Т.В. Архаизмы как тропическое средство в современном русском литературном языке: лингвопрагматический аспект. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2015. – 21 с.; Рахимова Х.К. К вопросу о функциях архаизмов в современном русском языке // Молодой учёный, 2023. – № 48. – С. 498-499.

<sup>4</sup> Махмутов А. Архаизмы и историзмы в казакском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-та, 1963.

<sup>5</sup> Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985; Ҳусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент: Ёзувчи, 1996; Улуков Н.М. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 298 б.;

Dialektologiya sohasida shevalarni o'rganish, dilektal hodisalarni izohlash, dialektlarning adabiy til shakllanishidagi ahamiyatini tavsiflash borasida salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilgan<sup>6</sup>. Antropotsentrik tilshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlarda madaniy qadriyatlar, xalq tafakkuri, idrokining tilda aks etishi o'z isbotini topdi.

XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan va ommalashgan lakuna tushunchasining mazmun-mohiyati, dastavval, XV asrda Alisher Navoiy tomonidan asoslab berilgan. Buyuk mutafakkir turkiy va sarta (fors-tojik) tilini qiyoslab, bir tildagi so'zga ikkinchi tilda doim ham muqobil so'z mavjud bo'lavermasligini faktik misollar orqali ko'rsatib bergan<sup>7</sup>. G'arb tilshunosligida, xususan, V.Gumboldt va F.Sossyur qarashlarida ham til leksikasidagi "bo'sh o'rinlar"lar haqida ayrim mulohazalarni uchratish mumkin<sup>8</sup>.

Kanadalik olimlar J.Vine va J.Darbelne tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan<sup>9</sup> lakuna tushunchasi rus tilshunosligida chuqur o'rganilgan. Xususan, I.Sternin ishlarida lakuna hodisasining lingvistik mohiyati, uning bir til ichida ham kuzatilishi e'tirof etilgan<sup>10</sup>. G.Bikova esa lakunaning voqelanishi, turlari, aniqlanishi va boshqa xususiyatlarini rus tili misolida tahlil qilgan<sup>11</sup>.

Tildagi lakuna hodisasini tavsiflash va o'rganish masalalariga so'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. D.Xudoyberganova, Sh.Usmanova, Z.Xolmanova kabi olimlar lakuna hodisasining nazariy asoslarini yoritdilar<sup>12</sup>. A.Hasanov, N.Ismatullayeva, D.Tolipova, B.Suyunovlar<sup>13</sup> ichki va tashqi lakunaning yuzaga kelish omillarini monografik tarzda tadqiq qildilar.

---

Зиётова С. "Мехробдан чаён" асари лексикаси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2022. – 154 б.; Matqurbonova M. Abdulla Qodiriyning kichik janr asarlari leksikasining ma'naviy-uslubiy xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 24 с.; Mo'minova U.Q. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari leksikasi. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Guliston, 2024. – 24 b.

<sup>6</sup> Оруджев А.А. Теоретическое обоснование к "Толковому словарю азербайджанского языка". Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Баку, 1962. – 45 с.; Скворцов Л. И. Взаимодействие литературного языка и социальных диалектов (на материале русской лексики послеоктябрьского периода). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1966. – 18 с.; Кайдаров А.Т. Уйгурские диалекты и диалектная основа литературного языка. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Баку, 1969. – 150 с.; Сат Ш.Ч. Формирование и развитие тувинского национального литературного языка. – Кызыл: Тувкнигоиздат, 1973. – 196 с.; Безносилова Л.М. Роль диалектной лексики в формировании словарного состава Коми литературного языка. – М.: Наука, 1985. – 110 с.

<sup>7</sup> Xolmanova Z. Alisher Navoiy-lingvokulturologik tushunchalarning ilk tadqiqotchisi sifatida /"Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni". Xalqaro konferensiya (Toshkent, 2019-yil 4-6 fevral) materiallari. – Toshkent, 2019. – B.441-445; shu muallif. Alisher Navai's views regarding to lingvokulturology // International journal "Anglisticum". Literature, linguistics & Interdisciplinary studies, 2019. – P. 59-64; shu muallif. Role of Alisher Navoi in the development of modern linguistics. – Korea, 2021. – № 08; shu muallif. Alisher Navoiyning zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotidagi o'rni // Alisher Navoiy. Xalqaro jurnal. Volume 1. Issue 2, 2021. – № 9-18. – P. 9-18.

<sup>8</sup> Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М., 1985. – С. 300-304; Ф. де Соссюр. Умумий тилшунослик курси (Француз тилидан И.Мирзаев таржимаси). – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б. 133-134.

<sup>9</sup> Vinay J., Darbelnet J. Stylistique comparee du francais et de l'anglais. – Paris, 1958. – P.10.

<sup>10</sup> Стернин И.А. Лексическая лакунарность и понятийная безэквивалентность. – Воронеж, 1997. – С. 18.

<sup>11</sup> Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. – Благовещенск: БГПУ, 2003. – 276 с.

<sup>12</sup> Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015. – 246 б.; Xolmonova Z., Saidahmedova O., Nurillayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. – Toshkent: Navro'z, 2018. – 94 b.; Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (darslik). – Toshkent: Universitet, 2019. – 246 b.

<sup>13</sup> Хасанов А. Ўзбек адабий тилидаги лексик лакуналарнинг диалектал асослари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2021. – 167 б.; Исмагуллаева Н. Хитой ва ўзбек тилларида лакуналарнинг воқеланиши. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 52 б.; Толипова Д. Лексические лакуны в узбекском и русском языках. Дисс. ... док. филос. по филол. наук. – Ташкент, 2023. – 133 с.; Suyunov B. O'zbek tili lakunar birliklari semantikasi va tezaurusi. Monografiya. (Tibbiy terminlar misolida). – Toshkent, 2024. – 70 b.

XX asr boshlaridagi o‘zbek tilining taraqqiyot xususiyatlari tadqiqotlarda yoritilgan<sup>14</sup>. Badiiy asarlarning til xususiyatlarini o‘rganish an’anaviy lingvistik tahlillarning asosini tashkil etadi. Xususan, Abdulla Qodiriy ijodini baholash, asarlarini tahlil qilish XX asrning 70-yillarida keng miqyosda amalga oshirila boshladi<sup>15</sup>.

Abdulla Qodiriy asarlari tilining leksik, morfologik, sintaktik va boshqa jihatlarini xususida monografik tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, X.Qahharova, A.Qahramonov, Z.Choriyeva, L.Jalalova, X.Kadirova, S.Ziyotova, E.Abdurazzoqov<sup>16</sup> kabi olimlarning tadqiqotlari hamda O‘.Lafasov va M.Abdiyevlar<sup>17</sup>ning turkum maqolalari Abdulla Qodiriyning so‘z qo‘llash san’ati, o‘zbek tili imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini ochib berishga qaratilgan. S.Normamatov Abdulla Qodiriyning lug‘atchilik faoliyatini tahlil qilgan<sup>18</sup>. Z.Qosimova o‘zbek tilidagi realiyalarning semantik xususiyatlarini “O‘tgan kunlar” misolida yoritgan<sup>19</sup>. Adibning ijodiy va so‘z qo‘llash mahorati konferensiya materiallarida o‘z ifodasini topgan<sup>20</sup>.

O‘zbek tilidagi arxaizmlarning lakunalarga munosabati, lakunalarning dialektal asoslari, adabiy tilni ichki omil sifatida boyitish imkoniyatlari, badiiy asar matnidagi, xususan, Abdulla Qodiriy asarlaridagi lakunar birliklar alohida tadqiqot obyekti sifatida tahlilga tortilmagan.

<sup>14</sup> Умаров Э. Фитрат ва тилшунослик атамалари // Маърифат. – Тошкент, 1996. 23 октябрь; шу муаллиф. Чўлпон тил ва имло ҳақида // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2001. – № 6. – Б. 48-52; шу муаллиф. Чўлпоннинг тил ва имло конференцияси қарорларига муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2003. – № 4. – Б. 42-45; Аширбоев С. Ўзбек тили морфологик қурилишининг ўрганилиш тарихидан (1875-1917 йиллардаги рус туркологлари асарлари асосида). Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1975. – 23 б.; Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.; Қодиров Қ. Ўзбек тили морфологик тизимининг ўрганилиш тарихидан (20-йиллар ўзбек тилшунослиги материаллари асосида). Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 24 б.; Янгибоева Н. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни (“Маориф ва ўқитғучи” журнали материаллари асосида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Қарши, 2019. – 47 б.

<sup>15</sup> Насриддинов Ф. Маҳорат жилolari (рисола). – Тошкент: Билим жамияти, 1974; Ёқубов Ҳ. Ўйрик санъаткорнинг тўнғич романи. – Тошкент, 1987; Имомов Б., Қулжонов А. Реализм ва романтизм. Ижодий метод ва услуб. – Тошкент: Камолот, 1989; Қўшжонов М. “Ўткан кунлар” бошидан ўткан кунлар // Ҳаёт ва қаҳрамон. – Тошкент, 1979; Норматов У. Қодирий боғи. Абдулла Қодирий ҳаёти ва ижоди ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 1995; шу муаллиф. “Ўткан кунлар” хайрати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 86 б.; шу муаллиф. Қодирийнинг сўнги илтижоси. – Тошкент: Movarounnahr, 2014. – 62 б.; Қахрамонов А. Абдулла Қодирийнинг “Меҳробдан чаён” романи поэтикаси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 136 б.; Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси (қодирийшунослик мисолида). Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 44 б.; шу муаллиф. Янгиланиш соғинчи. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2004. – 79 б.; шу муаллиф. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил, талқин. – Тошкент: Фан, 2006. – 210 б.

<sup>16</sup> Каххарова Х. Фразеология Абдулла Кадыри. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 28 б.; Бобониезов А. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадийяти. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995. – 24 б.; Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 24 б.; Жалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 122 б.; Кадирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 126 б.; Зиётова С. “Меҳробдан чаён” асари лексикаси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2022. – 154 б.; Abdurazzoqov E. Abdulla Qodiriy romanlari tilining o‘ziga xos xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2023.

<sup>17</sup> Абдиев М. Абдулла Қодирий ва ўзбек адабий тили // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2007. – № 12. – Б. 29; Лафасов Ў. Қодирийнинг изоҳловчиларни қўллаш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – № 3. – Б. 56.

<sup>18</sup> Нормаматов С.Э. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни. Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 253 б.

<sup>19</sup> Kasimova Z. O‘zbek tilidagi realiyalarning semantik tadqiqi. Filol. fan. b. fals.(PhD) ... diss. – Toshkent, 2023. – B. 16.

<sup>20</sup> “Абдулла Қодирий адабий мероси ва ҳозирги ўзбек адабиёти” мавзуидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2019. 30 апрель. – 163 б.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tillarning taraqqiyotida ijtimoiy munosabatlar va ularning hududiy kengayishi" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunar birliklarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabatini belgilash, tushunchani aks ettirish, ta'sirchanlik, badiiylikni ta'minlash imkoniyatini yoritish, ijodkorning so'z qo'llash mahoratini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Abdulla Qodiriy asarlarida qo'llangan arxaik va lakunar birliklarni aniqlash, tizimlashtirish, tarixiy-etimologik xususiyatlari, yuzaga kelish omillarini yoritish, lingvostatistik jihatdan tahlil qilish;

arxaik va lakunar birliklarni semantik, struktur-grammatik jihatdan tasniflash, semantik-uslubiy xususiyatlarini yoritish;

arxaik va lakunar birliklar semantik guruhlarining asarlar kesimidagi qo'llanish darajasini aniqlash, hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabatini belgilash;

arxaik va lakunar birliklarning semantik-uslubiy, lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilish, badiiy-uslubiy imkoniyatlarini asoslash.

**Tadqiqotning obyektini** Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"<sup>21</sup>, "Mehrobdan chayon"<sup>22</sup> romanlari va "Diyori baki"<sup>23</sup> to'plamidagi arxaik hamda lakunar birliklar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunalar birliklarning struktur-grammatik, semantik-uslubiy, lingvokulturologik tavsifi, hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati tahlilidan iborat.

**Tadqiqot metodlari.** Dissertatsiyada leksik-semantik, lingvostatistik, qiyosiy, tavsifiy, modellashtirish, komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Abdulla Qodiriy asarlaridagi ichki lakunar birliklar tizimlashtirilgan, arxaik birliklarga munosabati izohlangan, tarixiy-etimologik, lingvostatistik jihatdan tahlil qilinib, yuzaga kelish omillari aniqlangan;

arxaik va lakunar birliklar semantik, struktur-grammatik jihatdan tasniflangan, arxaik va lakunar leksemalar, frazemalar ajratilgan, arxaik va lakunar semalar aniqlangan, semantik-uslubiy jihatdan dalillanib, tushuncha, belgini darajalab, harakat-holatni turli usullarda ko'rsatish xususiyatlari ochib berilgan;

narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holat, hajm-o'lchov ma'nolarini bildiruvchi arxaik va lakunar birliklar ajratilib, qo'llanish darajasi aniqlangan, hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati belgilangan; tushunchani ifodalash xususiyatlari hamda lingvomadaniy belgilari ko'rsatilgan;

arxaik va lakunar leksema, frazemalarning semantik-uslubiy, lingvokulturologik o'ziga xosliklari isbotlanib, arxaizmga aylangan lakunar birliklar aniqlangan, adabiy tilni boyitish, ta'sirchanlik, badiiylikni ta'minlash imkoniyatlari asoslangan.

<sup>21</sup> Абдулла Кодирий. Ўткан кунлар. Роман. – Тошкент: Info Capital Group, 2017. – 488 б.

<sup>22</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. "Adabiy barhayot asarlar" turkumi. – Toshkent: Navro'z, 2019. – 288 b.

<sup>23</sup> Abdulla Qodiriy "Diyori baki" kichik asarlar to'plami. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 469 b.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat.** Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik, lakunar birliklar bo'yicha to'plangan materiallar, qo'yilgan masalalarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalar va umumlashtirilgan fikrlar hozirgi o'zbek tilshunosligi, xususan, dialektologiyasi uchun muhim zaruriy, ilmiy ma'lumot berishi, o'zbek tili arxaik va lakunar birliklari bo'yicha tadqiqotlar yaratishda manba bo'lib xizmat qilishi, leksikologiya, onomastika, dialektologiya, lingvokulturologiya, uslubshunoslik fanlarini o'qitishda amaliy jihatdan manba bo'lishi isbotlangan;

arxaik va lakunar birliklarning semantik tahlili natijalari izohli, semantik, dialektologik lug'atlar yaratilishida, o'zbek tili milliy korpusini shakllantirishda material va manba sifatida xizmat qilishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'yilgan muammoning aniqligi, nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan arxaizmlar, dialektizm, lakunar birliklarning ilmiy muhokamalardan o'tgani, tavsiya etilayotgan sheva so'zlarining ommabop-ilmiy nashrlarga tayanib izohlangani, tadqiqot metodologiyasining muvofiqligi, olingan natijalarning dalillanganini bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xulosalarning o'zbek adabiy tili dialektologiyasini arxaizm, lakuna va lakunar birlik haqidagi nazariy ma'lumotlar, lingvomadaniy qarashlar bilan boyitishi, leksema semantikasidagi o'zgarishlarni tahlil qilish, lakunar birliklarning tushuncha, tafakkurni ifodalashdagi o'rnini ko'rsatish imkonini berishi, sheva so'zlari, ichki lakuna tadqiqida nazariy manba vazifasini o'tashi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undagi materiallar, natija va xulosalarning hozirgi o'zbek adabiy tili, o'zbek dialektologiyasi, o'zbek tili tarixi, uslubshunoslik, semasiologiyaga oid darslik va qo'llanmalar yaratishda, oliy o'quv yurtlarida o'zbek dialektologiyasi bo'yicha maxsus kurslarni, akademik litsey va umumta'lim maktablarida ona tili darslarini tashkil etishda, o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatmalar, dars ishlanmalari tayyorlashda zarur manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunar birliklar tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

dissertatsiyada keltirilgan *chipxo'rlik* "ovqatni tanlab yeydigan", *targ'il* "rang", *chuchmal* "ta'm", *murt* "yuz qismi" kabi lakunar birliklarning aksariyati adabiy til doirasida arxaiklashgani, nomlanmagan tushuncha haqida axborot berishiga oid tahlillardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022 – 2023-yillarda bajarilgan IL-52 tur-21091433 raqamli "O'zbek milliy madaniyatiga xos atamalarga oid maqolalar bazasini yaratish (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)" mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 26-martdagi 01/6-728-son ma'lumotnomasi). Natijada turkiy qatlamga mansub arxaik va lakunar birliklarning izohlari elektron platforma materialining davr nuqtayi nazaridan xilma-xilligini ta'minlagan;

adabiy tilda uchramaydigan arxaik va lakunar birliklarning shevalar tarkibida saqlanib qolgani, badiiy asarlar matnida semantik-uslubiy funktsiya bajarishiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

universitetida 2022 – 2023-yillarda bajarilgan IL-52 tur-21091433 raqamli “O‘zbek milliy madaniyatiga xos atamalarga oid maqolalar bazasini yaratish (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 26-martdagi 01/6-728-son ma’lumotnomasi). Natijada arxaik va lakunar birliklarning o‘zbek shevalari hamda turkiy tillar leksikasi o‘rtasidagi mushtaraklikni aks ettiruvchi xususiyatlari elektron platforma materiallari mazmunini boyitgan;

o‘zbek tili lug‘at boyligini turkiy leksemalar hisobiga oshirish, semantik lug‘atlarni shakllantirish, tarjima matnlarning asliyatga muvofiqligini ta’minlash va tarjima lug‘atlarni takomillashtirish haqidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2019 – 2022- yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli “*Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish*” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 3-oktabrdagi 01/6-2689-son ma’lumotnomasi). Natijada lakunar birliklarning konseptni to‘liq ifodalash xususiyati, o‘z qatlamga oid so‘zlarni keng qo‘llash maqsadi arxaik va lakunar birliklardan keng miqyosda foydalanish imkoniyatini yaratgani haqidagi ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarining mazmunan boyitilishini ta’minlagan;

til va madaniyat, lingvokulturologiya, lakunalar, lakunar birliklar va ularga yondosh tushunchalar, arxaik birliklar, realiyalar munosabati haqidagi tahlillardan, Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunar birliklar tavsifi, tasnifi, belgi, harakat-holat bildiruvchi leksemalarning semantik, tarixiy-etimologik xususiyatlari, tilni ichki omillar asosida boyitish imkoniyatlari, adabiy tilda uchramaydigan *serkulki* “ko‘p kuladigan”, *cho‘guri* “qovun turi”, *sholpar* “mato turi”, *chuvak* “ko‘rimsiz”, *uqa* “jiyak”, *siyakinmoq* “taranglashmoq” kabi bir qator lakunar birliklarning arxaizmlar va sheva so‘zlariga ajralishi haqidagi ilmiy xulosalardan 2023-2024-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali “Hamma uchun” ko‘rsatuvining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zMTRK “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 7-oktabrdagi 06-28-944-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv ssenariylari XX asr boshlaridagi lisoniy vaziyat, o‘zbek tili taraqqiyoti, ichki omil, adabiy til va sheva munosabati, o‘zbek adabiy tili tarixiy taraqqiyot bosqichlaridagi lakunar birliklarning saqlanib qolishi va keyingi avlodga yetkazilishida tarixiy-badiiy manbalarning, ijodkor so‘z qo‘llash mahoratining ahamiyati, lakunar birliklarga yondosh tushunchalar izohi haqidagi materiallar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobativiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro, 3 ta respublika anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 24 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta (shulardan 9 ta respublika hamda 4 ta xorijiy jurnalga tenglashtirilgan mahalliy jurnal va 1 ta xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat. Tadqiqotning umumiy

hajmi 135 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning I bobi “**Arxaizm va lakuna hodisasining ilmiy muammo sifatida o‘rganilishi**”ga bag‘ishlangan.

1.1-§. *Arxaizm va lakuna hodisasining tavsifi va yondosh tushunchalardan farqi.* Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida ma’lum davrdagi lisoniy vositalarning ijtimoiy va tilning ichki taraqqiyot omillari ta’sirida iste’moldan chiqishi kuzatiladi. Bunday birliklar eskirgan qatlam sifatida ta’riflanib, ikkiga ajratilgan: 1) tarixiy leksema; 2) arxaik leksema. *Tarixiy leksema* – otmishga oid voqea-hodisalarni ifodalaydigan so‘z<sup>24</sup>. *Arxaik leksema* – ma’lum davr uchun eskirgan, iste’moldan chiqqan til birligi (so‘z, frazeologizm)<sup>25</sup>. Til va madaniyat munosabatining asosiy masalalaridan biri arxaizm va lakuna hodisasidir.

Til orqali odamlar o‘zaro fikr almashadi, his-tuyg‘ularini ifodalaydi va bilimlarini uzatadi. Biroq tillar o‘rtasidagi farqlar ba’zan ma’lum bir tilda mavjud bo‘lgan tushunchani boshqa bir tilda to‘liq ifodalashni qiyinlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, lakuna tushunchasi tilshunoslikda muhim o‘rin egallaydi. Lakuna – bir til yoki madaniyatda mavjud bo‘lgan, lekin boshqa til yoki madaniyatda aniq ekvivalentga ega bo‘lmagan lisoniy birlikning mavjud bo‘lishidir.

Lakuna fransuzcha *lakun* – “bo‘shliq”, “chuqurlik”, “bo‘sh joy” degan ma’nolarni anglatadi. Lakunalar kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi davrlarida shakllangan tushuncha bo‘lib, tillar o‘rtasidagi farqlar yuzaga kelgan davrlarga to‘g‘ri keladi. Lakunalarni boshqa yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ularning bo‘shliq ma’nosiga ega bo‘lganligidir. Lakunaning dastlabki ma’nosi “bir til ichidagi bo‘shliqlar ya’ni mavjud tushunchaning boshqa tilda nomlanmasligi haqidagi tushuncha”dir<sup>26</sup>. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda ma’lum bir tilga xos predmetlarni ifoda etuvchi so‘z hamda iboralar keng ma’noda lakunalar deb yuritiladi.

Milliy tushunchalarni ifoda etadigan lakunalarning ayrimlari asliyatga mansub bo‘lgan tildan tashqari yana qator qardosh xalqlar tilida uchrashi mumkin. Bunday so‘zlar hudud, turmush-sharoit jihatlaridan bir-birlariga yaqin, doimiy munosabat va muloqotda bo‘lib turadigan xalqlar tilida ko‘proq uchraydi.

Arxaizm, lakuna – hodisa nomlari bo‘lib, lisoniy vositalarga nisbatan *arxaik va lakunar birlik* termini qo‘llandi.

<sup>24</sup>Хожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 15.

<sup>25</sup>Хожиёв А. Кўрсатилган луғат. – Б. 15.

<sup>26</sup>Xolmanova Z., Saidaxmedova O., Nurullayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. – Toshkent, 2018. – B. 25.

## Arxaik va lakunar birliklarning farqlari

Arxaik birlik	Lakunar birlik
Qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigmaning tadqiqot masalasi hisoblanadi.	Antropotsentrik tilshunoslikning tadqiqot mavzusi hisoblanadi.
Arxaik birlik ifodalagan tushuncha shartli sinonimik munosabat asosida boshqa soʻz bilan ifodalanadi.	Lakunar birlik ifodalagan tushuncha keyingi davrlarda ham mavjud boʻlsa-da, lisoniy birlik (soʻz, frazema) koʻrinishida voqelanmaydi.
Arxaik birlikni qayta tiklash qiyin.	Lakunar birlik tushunchani nomlash maqsadida qoʻllanishi mumkin.

Tadqiqotchilar lakunalarni boshqa til leksikasidagi birliklar sifatida turlicha tavsiflaydilar<sup>27</sup>. Lakuna va realiyani yondosh tushunchalar sifatida koʻp uchratamiz. Realialar – bir xalqning turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy rivojlanishiga xos va boshqa xalq uchun begona boʻlgan predmet-hodisalarni anglatuvchi, milliy va tarixiy boʻyoqqa ega va, odatda, boshqa tillarda aniq toʻgʻri keladigan birliklar (ekvivalentlar)ga ega boʻlmagan soʻz va soʻz birikmalaridir.

Paragrafda arxaizm va lakunalarining *termin, lokalizm, lakuna, varvarizm, ekzotik leksika, muqobilsiz leksika, ekvivalentsiz leksika, fon soʻzlari* kabi tushunchalarga munosabati tahlil etilgan.

1.2.-§. *Arxaizm va lakuna masalasining oʻrganilishi.* Jahon tilshunosligida arxaik birliklar tilning tarixiy taraqqiyotidagi lingvistik jarayonlarni tadqiq etish davomida tahlil etilgan. Ingliz tiliga oid arxaizmlar ilmiy muammo sifatida oʻrganilgan<sup>28</sup>. Ingliz badiiy matnlaridagi arxaizmlarning semantik xususiyatlari, sheʼriy matndagi arxaizmlarning xususiyatlari tadqiq etilgan<sup>29</sup>. Hozirgi ingliz tilida arxaizmlar qoʻllanishining funksional-stilistik xususiyatlari yoritilgan<sup>30</sup>. Diplomatiya sohasidagi arxaik birliklar tadqiq etilgan<sup>31</sup>. Rus tilshunosligida arxaizmlarning til tizimidagi oʻrni, lingvopragmatik xususiyatlari, zamonaviy adabiy tildagi funksiyalariga doir izlanishlar olib borilgan<sup>32</sup>.

Oʻzbek tilshunosligida arxaizm, arxaik birliklar leksik qatlamga oid monografiyalarda<sup>33</sup>, onomasikaga doir tadqiqotlarda<sup>34</sup>, tarixiy asarlar leksikasiga<sup>35</sup>, tarjima masalalariga bagʻishlangan izlanishlarda<sup>36</sup> tahlil qilingan.

<sup>27</sup> Usmanova Sh. “Lingvokulturologiya” fanidan maʼruzalar kursi. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 79.

<sup>28</sup> Blake N. A History of the English Language. – London: Palgrave Macmillan, 1996; Crystal D. The Stories of English. – London: Penguin Books, 2005; Baugh A.C., Cable T. A History of the English Language. 6th ed. – New York: Routledge, 2013. URL: <https://kirill-shatilov.livejournal.com/74273.html>; Baugh A.C. & Cable T. A History of the English Language (6-e izd.). – New York: Routledge, 2013.

<sup>29</sup> Johnson M. Archaic Elements in Early Modern English Literature: Their Persistence and Function. PhD Dissertation, University of Oxford, 2008; Сидоров А.Н. Архаизмы в поэтике Шекспира: историко-лингвистический анализ. Дисс. ... канд. филол. наук. – М.: Московский государственный университет, 2010; Smith J. The Role of Archaic Lexis in Shaping English Literary Tradition. PhD Dissertation, Harvard University, 2012;

<sup>30</sup> Козлова Е.П. Функциональные аспекты использования архаизмов в современной англоязычной литературе. Дисс. ... канд. филол. наук. – Л.: Санкт-Петербургский государственный университет, 2014.

<sup>31</sup> Петров В.С. Архаизмы в англоязычной дипломатической корреспонденции // КиберЛенинка, 2018. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/arhaizmy-v-angloyazychnoy-diplomaticheskoy-korrespondentsii>.

<sup>32</sup> Коростелева Т.В. Архаизмы в системе языка и языковом узусе // Проблемы современного русского языка, 2014. – С. 154-159; она же. Архаизмы как тропеическое средство в современном русском литературном языке: лингвопрагматический аспект. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2015. – 21 с.; Рахимова Х.К. К вопросу о функциях архаизмов в современном русском языке // Молодой учёный, 2023. – № 48. – С. 498-499.

<sup>33</sup> Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.

Lingvokulturologiya yo‘nalishining nazariy asoslari Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” asarida yoritilgan<sup>37</sup>. Lakuna hodisasining mazmun-mohiyati ham Alisher Navoiy tomonidan asoslab berilgan. Buyuk mutafakkir turkiy va forsiy so‘zlarni qiyoslash chog‘ida muayyan tilda ayrim tushunchani ifodalovchi so‘zning mavjud bo‘lmasligini aniq misollar tahlili orqali tushuntirib o‘tgan: “*Va husn ta’rifida ulug‘roq xolg‘akim, turklar meng ot qo‘yupturlar, alar ot qo‘ymaydurlar*”<sup>38</sup>.

Rus va xorij tilshunosligida lakunarlik hodisasi hamda turlarini tizimlashtirishga katta e‘tibor berildi<sup>39</sup>. I.A.Sternin va G.V.Bikova muayyan xalqlarning o‘zaro aloqalaridagi lakunalarni ikkita asosiy turga – ichki hamda tillararo lakunalarga ajratgan<sup>40</sup>. Bir til materiali asosidagi lakunalar ichki lakuna hisoblanadi. Til ichidagi lakunar birliklar kam o‘rganilgan. I.A.Sterninning ta’kidlashicha: “Har bir tilda ko‘p sonli til ichidagi lakunar birliklar mavjud, ya’ni garchi ma’nosiga ko‘ra yaqin leksemalar uchrasa-da, tilning leksik tizimida bo‘sh, to‘ldirilmagan o‘rinlar kuzatiladi”<sup>41</sup>. Lakuna muammosi bilan jiddiy shug‘ullangan olimlardan yana biri V.Gak lakunalarni “til leksik sathidagi bo‘shliqlar, bor bo‘lishi kerak bo‘lgan so‘zlarning mavjud emasligi”<sup>42</sup> deb izohlaydi. Mazkur izohdan sezish mumkinki, olim til leksikasini boshqa til bilan qiyoslamasdan ham undagi lakunalarni aniqlash va baholash mumkinligini e‘tirof etadi.

Adabiy tildagi leksik bo‘shliqlarni sheva so‘zlari bilan to‘ldirish masalasi bugungi kun tilshunosligida ham muhim masalalardan biridir. Leksik bo‘shliqni lakuna sifatida nomlash va uni to‘ldirish borasidagi fikrlarni birinchilardan bo‘lib ilgari surgan S.Ashirboyevning qayd etishicha, “dialektologiyada uni (lakunani – Sh.B.) adabiy tildagi bo‘sh o‘rinni to‘ldiruvchi dialektal so‘z deb tushunish to‘g‘ri bo‘ladi”<sup>43</sup>. Bunday bo‘shliqlarni lakuna sifatida e‘tirof etish va uni milliy tilga xos so‘zlar bilan to‘ldirish borasidagi mazkur fikrlar tilshunoslikning bugungi holatida alohida dolzarblik kasb etadi. Olimning fikricha, adabiy tildagi lakunalarni to‘ldirish dialektologiyaning ham muhim vazifalaridan biri bo‘lishi kerak.

Lakuna hodisasining tilshunoslikda o‘rganilishi, mohiyati, boshqa lingvistik hodisalardan farqlanishi, ichki lakuna (introlakuna) va uni o‘rganish muammolari

<sup>34</sup> Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1965; Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент: Ёзувчи, 1996; Улуқов Н.М. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 298 б.

<sup>35</sup> Зиётова С. “Мехробдан чаён” асари лексикаси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2022. – 154 б.; Matqurbonova M. Abdulla Qodiriyning kichik janr asarlari leksikasining ma’noviy-uslubiy xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 24 b.; Mo‘minova U.Q. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari leksikasi. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Guliston, 2024. – 24 b.

<sup>36</sup> Ўрмонова Н.М. Таржимада тарихий-архаик лексикани акс эттириш принциплари ва таржима аниқлиги. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 154 б.

<sup>37</sup> Alisher Navoiyning zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotidagi o‘rni // Alisher Navoiy. Xalqaro jurnal. Volume 1. Issue 2, 2021. – № 9-18. – P. 9-18.

<sup>38</sup> Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn / To‘la asarlar to‘plami, 10-jild (– B. 505-531). – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2012. – B. 515-519.

<sup>39</sup> Вахитова Т. Лексические лакуны как фрагмент национальной языковой картины мира (на материале казахского и русского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2019. – С. 9.

<sup>40</sup> Стернин И.А., Быкова Г.В. Концепты и лакун // Методы исследования языкового сознания. – М., 1998. – С. 55-67.

<sup>41</sup> Стернин И.А. Лексическая лакунарность и понятийная эквивалентность. – Воронеж: ВГУ, 1999. – С. 210.

<sup>42</sup> Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. – Л.: Просвещение, 1977. – С. 261.

<sup>43</sup> Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 101.

haqida muhim fikrlar bildirilgan<sup>44</sup>. F.Musayeva o‘zbek tilidagi lakunalarni sheva so‘zlari bilan boyitishga e‘tibor qaratgan<sup>45</sup>. A.Shaymardanova o‘zbek tilidagi ichki lakunalarning yuzaga kelish omillarini va bartaraf etish usullarini tahlil qilgan<sup>46</sup>.

A.Hasanov o‘zbek adabiy tilidagi leksik lakunalarning dialektal asoslari masalasini monografik jihatdan tahlil qildi<sup>47</sup>.

Arxaizm va lakunar birliklar tadqiqotlarda alohida hodisa sifatida mustaqil ravishda tahlil qilingan. Arxaizm va lakuna munosabati, so‘zning arxaik yoki lakunar birlik sifatida baholanish mezonlariga deyarli e‘tibor qaratilmagan.

1.3- §. *Abdulla Qodiriy asarlarining lingvistik aspektidagi tadqiqi*. Abdulla Qodiriy asarlarining til xususiyatlariga doir izlanishlar mavjud<sup>48</sup>. Adib asarlarining tilini maxsus ilmiy tadqiq etish 1990-yillardan boshlandi. X.Qahhorova Abdulla Qodiriy asarlaridagi frazeologizmlarning uslubiy-semantik xususiyatlarini yoritdi<sup>49</sup>. A. Boboniyozov tadqiqotida Abdulla Qodiriy ijodida tilning tasviriy vositalaridan foydalanish mahorati, adib asarlarining jozibadorligi, ta’sirchanligi, obrazli ifodalarga boyligi ochib berilgan<sup>50</sup>. Z.Choriyeva tadqiqotida “O‘tkan kunlar” romanidagi to‘rtta maktubning til xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan<sup>51</sup>. L.Jalolova “O‘tkan kunlar” romanining leksik, fonetik va morfologik, sintaktik xususiyatlarini o‘rganilgan<sup>52</sup>.

X.Qodirova Abdulla Qodiriy asarlari tilini lingvistik va lingvopoetik muammo sifatida o‘rgandi, evfemizm va disfemizmlarning qo‘llanishini tahlil qildi<sup>53</sup>. E.Abdurazzoqov tadqiqotida to‘liqsiz, sodda yoyiq, sodda yig‘iq, egali va egasiz gaplarning ifodalanish xususiyatlari ochib berilgan<sup>54</sup>. S.Ziyotova “Mehrobdan chayon”da qo‘llangan leksik hamda frazeologik birliklar va ularning uslubiy xususiyatlarini yoritdi. “Mehrobdan chayon” leksikasini 28ta semantik guruhga ajratib, roman leksikasining semantik-uslubiy xususiyatlarini polisemantik so‘zlar, metafora, metonimiya asosidagi ko‘chimlar, leksemalarning semantik-paradigmatik munosabatlari, omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalari asosida tahlil qilgan<sup>55</sup>.

Tadqiqotlarda Abdulla Qodiriy lisoniy qobiliyatining o‘ziga xos qirralari ko‘rsatib berilgan.

---

<sup>44</sup> Xolmanova Z., Saidahmedova O., Nurillayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. – Toshkent: Navro‘z, 2018. – 94 b.

<sup>45</sup> Мусаева Ф. Ўзбек шевалярининг лингвомаданий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2019. – 120 б.

<sup>46</sup> Shaymardanova A. O‘zbek tili ichki lakunalarining lingvistik tadqiqi. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD). ...diss. avtoref. – Termiz, 2024. – 24 b.

<sup>47</sup> Ҳасанов А. Ўзбек адабий тилидаги лексик лакуналарнинг диалектал асослари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс.– Тошкент, 2021. – 167 б.; shu muallif. O‘zbek adabiy tilidagi leksik bo‘shliqlarni ichki imkoniyatlar asosida to‘ldirish tamoyillari. Filol. fan. dok. (DSc) ... diss. – Toshkent, 2025. – 236 b.

<sup>48</sup> Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент, 1973.

<sup>49</sup> Каххарова Х. Фразеология Абдулла Кадыри. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 28 с.

<sup>50</sup> Бобонийёзов А. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995. – 24 б.

<sup>51</sup> Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – Б. 17.

<sup>52</sup> Жалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 122 б.

<sup>53</sup> Кадинова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 126 б.

<sup>54</sup> Abdurazzoqov E. Abdulla Qodiriy romanlari tilining o‘ziga xos xususiyatlari. Filol. fan. fals. dok. ... diss.– Toshkent, 2023. – 138 b.

<sup>55</sup> Зиётова С. “Мехроbdan чаён” асари лексикаси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2022. – 154 б.

II bobda “**Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunar birliklarning tarixiy-etimologik, lingvostatistik tahlili, semantik tasnifi**” keltirilgan.

2.1-§. *Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunar birliklarning tarixiy-etimologik xususiyatlari, lingvostatistik tahlili.* XX asr boshlarida jadidchilik harakatining til yo‘nalishidagi faoliyati turkiy so‘zlarni keng qo‘llashga urinish bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida Abdulla Qodiriy asarlarida qo‘llangan 97ta arxaik birlik aniqlandi: shundan 43tasi turkiy, 25tasi forscha-tojikcha, 21tasi arabcha, 8tasi qorishiq so‘zlardan iborat. Adib asarlaridan yig‘ilgan lakunar birliklar 59ta turkiy, 43ta forscha-tojikcha, 48ta arabcha, 3ta ruscha, 14ta qorishiq so‘z, 8ta izofani tashkil etdi. Adib ijodidagi arxaik birliklar leksemalarning tarixiy-etimologik xususiyatini yoritishga ham xizmat qiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning kichik asarlari to‘plami “*Diyori bakr*” deb nomlangan bo‘lib, bu izofa kichik asarlarning birida izohlab o‘tilgan. *Diyori bakr* arabcha so‘zlar asosidagi forsiy izofa, *diyor* – “uy, maskan, mamlakat, o‘lka” ma‘nolarini anglatadi (O‘TIL, I, 722). *Bakr* – arab tilida “yangi tug‘ilgan tuyaning bolasi, bo‘taloq”; keyinchalik ko‘chma ma‘nolarda “yangi tug‘ilgan” ma‘nolarida ham qo‘llangan (DB, 276). *Diyori bakr* – “qo‘l tegizilmagan, buzilmagan mamlakat” deb izohlangan va shunday deyilgan: “Qodiriy malaka oshirish uchun Moskvaga borgan. ...Ham siz o‘qug‘uchidan besh-o‘n kunga uzoqlashib turishni bo‘yning‘a olib diyori bakrdan qo‘zg‘aldim (DB, 276). Bu yerda muallif o‘qish tufayli tug‘ilgan maskanidan chiqib ketganini nazarda tutgan. *Bakr* so‘zidagi “tug‘ilgan” semasi hamda muallif keltirgan jumla *Diyori bakr* izofasining “tug‘ilgan yurt, vatan” ma‘nolarida qo‘llanganini ko‘rsatadi.

“Mehrobdan chayon” romanidan misol tariqasida turkiy so‘zlardan *qo‘sqi arxaik birligining* tarixiga to‘xtalsak: *Xishtko‘prukka yetkanda, katta suv yonidagi hujra eshigida qo‘sqi po‘stunga o‘ralib turg‘an qorovul uning oldig‘a tushib salom berdi* (MCh,202-b). *Qo‘sqi* – eskirgan, juldur kiyim. Bu so‘z asli qadimgi turkiy tildagi “ayni-”, “buzil-” ma‘nosini anglatgan qus- fe‘lidan (Devon II, 18) -қы qo‘shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik u unlisi o unlisiga almashgan; o‘zbek tilida ы unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: қус-+қы= қусқы> қосқы > қосқи<sup>56</sup>. Bugungi kundagi adabiy nutqda mazkur arxaik birlik o‘rnida *juda eski* atamasi qo‘llanadi. Shu tushunchani ifodalash uchun *juldur* so‘zi ham ishlatiladi: *Juldur* – kiyilaverib yoki tutilaverib uvadasi chiqqan kiyim (O‘TIL,II,112).

Abdulla Qodiriy “kiyim, ko‘rpa, ko‘rpacha kabi narsalarning tashqi, sirtqi qavati” ma‘nosini ifodalovchi *avra* (O‘TIL,I,33) so‘zini ishlatgan: “*Shu chorxari ayvonning o‘rta bir yerida, ustiga atlas ko‘rpalar yopilg‘an tanchaning to‘rida devorga suyanib, avrasiga qora movut sirilgan sovsar po‘stin kiyib bir kishi o‘lturadir*”. *Avra* so‘zi hozirgi kunda iste‘moldan chiqib, ayni tushuncha boshqa muqobil so‘z bilan nomlanmagani sababli lakunar birlikka aylangan. Hozirgi o‘zbek tilida bu so‘zning fe‘l omonimi qo‘llanadi: *avra-* ishontirish, ko‘ndirish maqsadida yolg‘on-yashiq gaplar gapirish. “Bu fe‘l asli qadimgi turkiy tildagi “tinch” ma‘nosini anglatuvchi *abir* sifatiga -a qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan. Keyinroq ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan, o‘zbek tilida *b* undoshi *v* undoshiga, *a* unilari *ä* unililariga

<sup>56</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). –Тошкент: Университет, 2000. – Б. 589.

almashgan: абыр+а= абыра->абра- > ävpä-”<sup>57</sup>. Fikrimizcha, bu soʻzlar tarixan “yuza, ust” semalari bilan bogʻlangan. Chunki *avramoq* feʻli maʼnosida yuzaki munosabat yotadi.

Abdulla Qodiriy asarlari leksemalarning arxaik shakllari qoʻllangani, keng doiradagi semantikani namoyon etishi, soʻz etimologiyasini aniqlashga asos boʻlishi bilan ham ahamiyatlidir.

2.2-§. *Abdulla Qodiriy asarlari leksikasining hozirgi adabiy tilga munosabati hamda arxaik va lakunar birliklarning yuzaga kelish omillari*. Tilning tarixiy taraqqiyoti tashqi va ichki omillar asosida yuz beradi. Ijtimoiy-siyosiy tuzum, jamiyatdagi oʻzgarishlar tilda oʻz ifodasini topadi.

Arxaizm hodisasi tilning tarixiy taraqqiyoti bilan bogʻliq boʻlib, koʻp hollarda, ekstralingvistik omillar asosida yuzaga keladi. Boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish bir qator soʻzlarning isteʼmoldan chiqishi va arxaik birliklarga aylanishiga sabab boʻladi.

Lakunar birliklarning yuzaga kelishi olimlar yomonidan asoslab berilgan. Tadqiqotchi L.K.Bayramova<sup>58</sup> tillararo lakunar birlik va lakunalarni oʻrganib, lakunalarning vujudga kelishida ikki asosiy omil mavjud ekanligini taʼkidlaydi: lingvistik omillar (obyektiv dunyoni tilga koʻra ajratishning oʻziga xosligi va til tizimlari rivojlanishida oʻzaro mos kelmasligi); ekstralingvistik omillar (xalqlarning tarixiy, madaniy va maʼnaviy anʼanalari, geografik, ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoitlari xilma-xilligi, turli xalqlar urf-odatlarini, mentalitetining oʻziga xosligi).

Abdulla Qodiriy asarlaridagi bir qator leksemalar hozirgi oʻzbek adabiy tilida uchramaydi. Bu leksemalarning isteʼmoldan chiqishini quyidagi omillar asosida izohlaymiz:

1. Ijtimoiy voqelik, muhitning oʻzgarishi natijasida soʻz yoki frazema ifodalagan tushunchaga ehtiyoj qolmaganligi sababli birliklar isteʼmoldan chiqqan.

2. Tushunchaning isteʼmoldan chiqishi natijasida lugʻaviy birliklar hozirda qoʻllanmaydi (bunday birliklar tarixiy soʻzlar, deb qaraladi).

3. Tushunchaning oʻzlashma soʻz bilan nomlanishi natijasida lugʻaviy birlik isteʼmoldan chiqqan (bunday birliklar arxaik soʻzlardir).

4. Nutqiy tejamkorlik, adabiy tilning umumlashtiruvchi qonuniyati asosida tushuncha boshqa birlik bilan nomlangan. Tilning lugʻat sathidagi soʻzlar miqdorining keskin oshib ketishini cheklab turuvchi omillardan biri birliklarning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi va shu orqali koʻplab tushunchalarni ifodalay olishidir. Shuni qayd etish lozimki, har qanday tushunchani tilda soʻz birikmasi (yoki gap tarzidagi izoh va tushuntirish) bilan ifodalash mumkin. Tilning bu xususiyati leksemalarning koʻpayib ketishini cheklashi bilan birga leksik tizimda muayyan lakunalarni ham yuzaga keltiradi.

5. Arxaik birliklarning isteʼmoldan chiqishi va muqobiliga ega boʻlmasligi lakunani hosil qiladi.

Hozirgi oʻzbek tilida mavjud boʻlmagan lugʻaviy birliklarning hammasi ham lakuna boʻlavermaydi. Lakunar birliklar tushunchani nomlashga ehtiyoj boʻlgan holatlardagina namoyon boʻladi.

<sup>57</sup> Kўrsatilgan манба. – Б. 20.

<sup>58</sup> Байрамова Л.К. Ментальные межъязыковые лакунарные единицы и внутри языковые лакуны // Сопоставительная филология и полилингвизм: диалог литератур и культур. – Казань: КГУ, 2005.

Abdulla Qodiriy asarlaridagi lakunar birliklar shakllanishiga ko‘ra ikki xil:

1. O‘zbek shevalari va adabiy til o‘rtasidagi lakunar birliklar: *simkor* “shogirdlarga ishbay asosida to‘lanadigan ish haqi”, *tajammul* “kerakli narsalar”, *qo‘m* “tuyaning egari”, *moloya‘n* “keraksiz, qiymatsiz ashyolarning umumiy nomi”, *yaylanmoq* “quloch yoymoq”, *kapsan* “xirmon ko‘tarilganda kambag‘allarga beriladigan ulush”.

2. Ijodkor tomonidan yaratilgan lakunar birliklar: *sovutmachiq dasturxon* “naridan-beri tayyorlangan, supta dasturxon”, *dumi qopqonda qolmoq* “kalta kiymoq”, *tarelka tutmoq* “xushomad qilmoq”.

Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik birliklar turkiy qatlamdagi an’anaviy so‘zlarni, o‘z davriga oid leksik birliklarni qo‘llashi bilan izohlanadi. Lakunar birliklarning yuzaga kelish omillari adibning favqulodda lisoniy qobiliyatga egaligi, lug‘atchilik bilan shug‘allangani va tushunchalarni teran aks ettirish istagi bilan belgilanadi.

2.3-§. *Arxaik va lakunar birliklar tasnifi hamda Abdulla Qodiriy asarlaridagi lakunar birliklarning semantik guruhleri*. Eski qatlam so‘zlari izohlangan ishlarda arxaik birliklar maxsus tasniflanmagan. Dunyo tilshunosligida lakuna hodisasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda lakunalar tasnifi masalasiga ham e‘tibor qaratilgan. Lakuna hodisasi tadqiqotlarda har xil talqin qilinganidek, tasniflar ham bir xil emas. M.Baker lakunalarning tarjimada qanday ifodalanishini ko‘rsatish uchun ularni quyidagicha guruhlab keltirgan: 1. Leksik lakunalar. 2. Grammatik lakunalar. 3. Madaniy lakunalar<sup>59</sup>. Nevmark P.A. lakuna hodisasini tavsiflab, ularni leksik, grammatik, madaniy lakunalarga ajratgan<sup>60</sup>. Lakunalar haqida R.D.Filatov fikr bildirib, lakunalikni ikki turga: to‘liq va to‘liq bo‘lmagan turlarga ajratadi<sup>61</sup>. E.Eynullayeva lakunalarni til sathlari kesimida va shaxs idroki nuqtayi nazaridan tasniflagan<sup>62</sup>. G.Bikova tomonidan introlingval lakunaning 16ta turi ajratib ko‘rsatilgan<sup>63</sup>.

Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunar birliklar semantik jihatdan ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid leksik birliklarni qamrab oladi. Bu birliklarni quyidagi semantik guruhlariga ajratdik:

1. Narsa-buyumni ifodalovchi arxaik va lakunar birliklar: *reza* “ushoq, parcha”, *zarang* “zarang yog‘ochidan oyib ishlangan kosa”, *kirpo‘sh* “o‘rov, jild”, *chiviq* “mayda chiziq-chiziq yo‘lli gazlama, olacha”; *so‘xta* “forscha-pilikning kuygan qismi”, “yog‘och qirindisi”, *to‘qoch* “katta bo‘g‘irsoq”; “kulcha non”, *yonchiq* “to‘n, chakmon va shu kabilarning ichki yon tomoniga tikilgan cho‘ntak(cha)”; *upika* “buzoq terisidan tayyorlangan ko‘n; *alak* paxta ipdan qo‘l do‘konda to‘qilgan mato; silliq bo‘z”.

2. Belgi-xususiyatni ifodalovchi arxaik va lakunar birliklar: *karih* “yoqimsiz, xunuk, ko‘ngil aynitadigan, jirkanch”, *murassa* “qimmatbaho toshlar bilan bezalgan”, *peshtaham*, *koski* “og‘zi buzuq”, *cho‘g‘ol* “baquvvat, kuchli xizmatkor”; *shinni* “o‘ta aqlli”, *ninni* “go‘dak, aqlsiz”, *tumsa* “tug‘maydigan xotin”, *sarak* “butun, sinmagan

<sup>59</sup> Baker M. (Ed.). Routledge Encyclopedia of Translation Studies. (2nd ed.). – Routledge, 2009.

<sup>60</sup> Nevmark P.A. Textbook of Translation. – Prentice Hall, 1988.

<sup>61</sup>Филатов В.Д. Локальная маркированность фразеологических единиц. – М., 1981. – С. 24.

<sup>62</sup> Эйнуллаева Е. Лакуны в структуре языковой личности и их заполнение в межкультурной коммуникации (на примере английского и русского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2003. – С. 9.

<sup>63</sup> Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. – Благовещенск: БГПУ, 2003.

tuxum”, *shilingpocha* “oyog‘i ochiq”, *yovvoyi chiqim* “turli nalog va poralar”, *og‘ilnishin* “hayvonsifat yashash”;

3. Harakat-holat, faoliyat-jarayonni ifodalovchi arxaik va lakunar birliklar: *iqdom* “qadam bosish; oyoq osti qilish”, *isror* “qattiq kirishish, ahd qilish”, *shuru* “boshlash, ishga kirishish”, *musaxxar* “sehrlangan, taslim bo‘lgan, bo‘ysungan”, *puk berish* “bildirib qo‘yish, oshkor qilish”, *riqqat* “ko‘ngli bo‘shlik, ko‘ngli yumshoqlik”, *yaylanmoq* “qanot qoqmoq”; *tag‘oful* “bilib bilmaslikka olish”, *maqhur* “qahrg‘azabga duchor bo‘lgan”, *matluqa* “taloq qilingan”, *sirra bo‘lmoq* “nima ish qilishini bilmay garang bo‘lmoq”;

4. Hajm-o‘lchov bildiruvchi lakunar birliklar: *farsax (farsang)* taxminan 7-8 km.ga teng masofa o‘lchovi, *olchin/arshin* – 0,71 metr; *paysa* – 50 gramm.

Lakunar birliklar belgi, harakat-holatning nozik qirralarini ifoda aks ettirish xususiyatiga ega. Bu jihat, asosan, tarjima jarayonida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Masalan, “O‘tkan kunlar”dan olingan quyidagi jumlada *cho‘qindi* lakunar birligi *взяла кусочек* deb tarjima qilingan: *Xafa bolish yaxshi emas, suyundim, – dedi Kumush va dasturxondan cho‘qindi // Я нисколько не обиделась, напротив, даже обрадовалась, – сказала кумуш и взяла кусочек с одного из блюд.*

Bu o‘rinda tarjima muvofiqligi ta‘minlamagan. *Cho‘qindi* deganda taomdan chimdib olish nazarda tutilgan (qiyos: *cho‘qimoq*). *Взяла кусочек* birikmasi esa kichik bo‘lakni oldi, degan ma‘noni bildiradi. Demak, lakunar birliklar tarjimasi yuqori darajadagi til bilish malakasini talab etadi.

Tadqiqot davomida to‘plangan arxaik birliklar 78tani, lakunar birliklar 172tani tashkil etdi. Bu birliklarning semantik guruhlar kesimidagi miqdori aniqlandi.

Narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holat ifodalovchi leksemalar nisbatan ko‘p miqdorni tashkil etdi. Bu miqdor shu guruhlardagi leksemalarning faol qo‘llanishi bilan izohlanadi.

III bob “**Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunar birliklarning struktur-grammatik tasnifi, semantik-uslubiy, lingvomadaniy xususiyatlari**” deb nomlangan.

3.1-§. *Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunar birliklarning struktur-grammatik tasnifi.* Abdulla Qodiriy asarlaridan to‘plangan arxaik va lakunar birliklarni struktur-grammatik xususiyatlariga ko‘ra uch guruhga ajratdik:

1. *Arxaik va lakunar leksemalar* (so‘z shaklidagi arxaik va lakunar birliklar).

2. *Arxaik va lakunar morfemalar* (grammatik shakl ko‘rinishidagi arxaik hamda lakunar birliklar).

3. *Arxaik va lakunar frazemalar* (ibora ko‘rinishidagi arxaik hamda lakunar birliklar).

Abdulla Qodiriy asarlaridagi lakunar leksemalar davr muhiti, ruhiyati, xalqning dunyoqarashi, urf-odat, an‘analari haqida muhim ma‘lumotlar beradi. Mazkur birliklarning ayrimlari eskirgan so‘z sifatida iste‘moldan chiqqan. Ularning hammasini ham bugungi kunda qo‘llashga ehtiyoj yo‘q. Adib asarlarida qayd etilgan lakunar birliklarning hozirgi kunda nomlash ehtiyoji mavjud tushunchlarga moslaridagina foydalanish, adabiy tilni boyitish maqsadida ommalashtirish maqsadga muvofiq. Masalan, *targ‘il, yonchiq, matashmoq* so‘zlarini keng doirada qo‘llash o‘zbek tilining semantik imkoniyatlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. *Targ‘il* – rang nomi: *Nigor oyim*

*qisqa bo'liq, pista po'choq targ'il ko'zlik, zarcha tanlik, yuzidagi onda-sonda chechak o'runlari bo'lmag'anda husndor bir xotin edi* (MCh,21). *Targ'il* – sarg'ish va qoramtir yo'lli: shu tUSDagi sigir, buzoq va sh. k. *Targ'il buzoq* (OTIL, IV, 5).

Hozirgi kundagi kiyimlarda ham uchraydigan ichki cho'ntak Abdulla Qodiriy asarlarida *yonchiq* deb yuritiladi. *Yonchiq* – to'n, chakmon va shu kabi kiyimlarning ichki yon tomoniga tikilgan cho'ntak (cha) (O'TIL, II, 45). Bugungi kunda adabiy tilda umumiy holda *cho'ntak* atamasi qo'llanadi. Cho'ntakning turi, qayerda joylashgani birikmalar orqali ifodalanadi: *ko'ylak cho'ntagi, shim cho'ntagi, yon cho'ntak, tashqi cho'ntak* yoki *ichki cho'ntak* kabi.

Har bir til birligi kommunikatsiya jarayonida muhim o'rin tutadi. “Leksema ham, morfema ham til birligi (lisoniy birlik) sifatida qismga teng”<sup>64</sup>. Abdulla Qodiriy asarlarida arxaik morfemalar kam kuzatildi. Masalan, “*shu choqda bizga Otabek kerak edi! Nega desangiz, u kelsin edi-da, sevganini bir ko'rsin edi* (OK,25). Ushbu jumladagi *-sin* shakli bilan to'liqsiz fe'lning birikishi ifodalagan grammatik ma'no hozirgi o'zbek tilida *kelishi kerak edi* birikmasi bilan anglashiladi. Shunisi ham borki, *-sin +edi* birikuvida istak ma'nosi ham ifodalangan. Bu shakl hozirda so'zlashuv uslubida qo'llanadi. Adibning grammatik shakllardan foydalanish mahoratini ham alohida monografik planda tadqiq etish lozim.

3.2-§. *Arxaik va lakunar leksemalarning semantik-uslubiy, lingvomadaniy xususiyatlari*. Abdulla Qodiriy asarlaridagi lakunar leksemalarni sodda va murakkab turlarga ajratdik. Sodda arxaik va lakunar leksemalar tub hamda qo'shimcha orqali yasalgan leksik birliklardan iborat bo'lsa, murakkab lakunar leksemalar qo'shma birliklarni va forsiy izofa ko'rinishidagi yaxlit birliklarni o'z ichiga oladi. Lakunar leksemalarni sodda tub va sodda yasama kabi guruhlarga ajratish nisbiy bo'lib, leksik birlikning bugungi kun nuqtayi nazaridan anglashiladigan morfem tarkibi nazarda tutildi. Sodda tub leksema sifatida olingan birliklar ham tarixan yasama bo'lishi mumkin. Bu holat diaxron va etimologik tahlillar orqali aniqlanadi.

*Sodda tub arxaik va lakunar leksemalar*. *Sajiya* arxaik birligi tug'ma sifat, xususiyat; xulq, tabiat; xarakter ma'nosida kelgan: *Mehnatkash kambag'allarning axloqi, sajiyasi, oilasi, turmushi va bir-biriga aloqasi, samimiyati* (MCh, 23).

*Sarak* lakunar birligi “butun, sinmagan tuxum” ma'nosini ifodalagan: *birining o'ndan birisi sarak, qolg'ani ko'rakda turmayturg'an pachoqdir* (DB, 178). Bu tushuncha hozirda leksema korinishida ifoalanmaydi, shuning uchun lakunar birlik hisoblanadi.

*Sodda yasama arxaik va lakunar leksemalar*. “O'tgan Kunlar” romanida portretlar va peyzajlar tasvirlarida, voqelikni aks ettirishda sodda yasama birliklardan unumli foydalanilgan: *peshtaham, koski* “og'zi buzuq”, *dumsiz* “kalta kiyingan”, “*siymintan*” “kumush tanli, oq tanli”, *shilingpocha* “oyog'i ochiq”, *ramaqijon* “juda ozgan, to'zgan”, *rind* “nozik, sinchkov”, *yasamol* “yasangan, bezangan”, *ixna* “sirtqi ko'rinishiga e'tibor bermaydigan”.

*Almisoqdan qolgan* arxaik iborasi hozirgi kunda kam qo'llanadi. Ammo frazema tarkibidagi *almisoq* hozirda mustaqil ravishda qo'llanmaydi. Yozuvchi bu iboradagi *almisoq* birligini quyidagi ma'noda ishlatgan: *almisoq* – Alloh taolo ruhlardan ahdu

<sup>64</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 114.

paymon olgan kun, o‘zini va farishtalarni tan olgan ruhlar musulmon, olmaganlari kofir bo‘lgan kun. *Chunonchi bu bir juft baytning ma’xazini (manba) tekshirsak, tarixning quloch-quloch ichkarisiga kirib ketamiz; varaq-varaqt tarix hamoqat va shaqovatidan (baxtsizlik) o‘quy-o‘quy nihoyat hazrat odamga, nihoyat almisoqqa borub yetamiz (DB, 145). Hozirgi kunda adabiy tilda bunday holat uchun *Odam ato davridan qolgan yoki otamni davridan qolgan* iboralari ham qo‘llanadi.*

**Murakkab arxaik va lakunar leksemalar:** *bo‘yni g‘avs* “bo‘yni yo‘g‘on, mansabdor”, *to‘ppim arava* “do‘ppini chakkaga qo‘yib qiyshaytirib kiyish”, *ozshaloq* “satang ayol”, *sartopo* “boshdan-oyoq”, *so‘x mashrab* “tabiati sho‘x, o‘ynoqi” kabi.

*Sovutmachiq dasturxon* – naridan-beri tayyorlangan, supta dasturxon: *O‘n chog‘liq xotin bo‘lishib sovutmachiq dasturxonga o‘lturishdilar* (O‘K, 179). Bu birlik orqali yozuvchi yoyilgan dasturxonning yengil-yelpi tuzalganiga ishora qilgan.

*Yovvoyi chiqim* turli nalog va poralar, ya‘ni hozirgi kundagi kommunal to‘lov va soliq to‘lovlarini ifodalaydi: *Tag‘in bu hunarning yovvoyi chiqimlari ham behisob, deb eshitkanim bor* (DB, 221). Yozuvchi asarida qo‘llagan bu birlik bugungi kun adabiy nutqda asosan *ortiqcha chiqimlar* tarzida qo‘llanadi. Lekin bu holatga mos ravishda qo‘llanuvchi so‘z hozirda mavjud emas.

Qodiriy ijodidagi sodda lakunar birliklarning, asosan, umumxalq tiliga oidligi, murakkab birliklarning ko‘proq adib ijodkorligi bilan belgilanishi kuzatildi.

3.3-§. *Arxaik va lakunar frazemalarning semantik-uslubiy, lingvomadaniy xususiyatlari*. Frazemalar ijtimoiy voqelik, dunyoqarash, madaniy taraqqiyotni yuqori darajada ta’sirchan aks ettiruvchi til birliklaridir. Abdulla Qodiriyning “Diyori bakr” to‘plamida frazemalar boshqa asarlariga nisbatan ko‘p qo‘llangan.



3.1-rasm. “Diyori bakr” to‘plamida qo‘llangan frazemalar.

Bu to‘plamdagi asarlarning kichik hajmga egaligi, so‘zlashuv uslubini aks ettirgani, muallif biografiyasi bilan bog‘liqligi arxaik va lakunar frazemalarning nisbatan ko‘p ishlatilishini ta’minlagan.

Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik frazemalar hozirgi adabiy tilda, ma’lum ma’noda, muqobiliga ega. Lekin ular uslubiy xususiyatlari va semalari bilan farqlanadi.

*Tancha ko‘rpani issig‘lab bermoq* “yugurdaklik, xizmatkorlik; laganbardorlik qilish” ma’nosida qo‘llangan: *Mahkamayi shar‘iyaning raisi Zahiriddin a‘lam falonchi, pistonchi domlalg‘a tancha ko‘rpani issig‘lab berib, o‘zi tomosha qilub o‘ltursun!* (DB, 125). Hozirgi kunda bunday holatga nisbatan xalq tilida *paxta qo‘yish, soyasiga salom berish* kabi iboralar qo‘llanadi.

Davr nuqtayi nazaridan yaratilgan frazemalar ham mavjud bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy voqelikning tildagi ifodasini aks ettiradi: Masalan, *tarelka tutmoq* “laganbardorlik, xushomadgo‘ylik, chaqimchilik, sotqinlik”: *Tarelka tutish va boshqa onov-manov, oldi-qochdilarini istisno qilg‘anda xolis bir siymo bo‘lib qoladir* (DB, 200). Ushbu frazema *likopcha* yoki boshqa shunga o‘xshash tilimizga yaqin so‘z bilan emas, aynan ruscha so‘z ishtirokida shakllangani ko‘rinib turibdi. Mazkur frazemalar “xushomadni namoyon qilish” vositasi va semasiga ko‘ra farqlanadi.

3.1-jadval

**“Xushomad qilish” semali frazemalar**

Frazema	Vosita	Sema
<i>Tancha ko‘rpani issig‘lab bermog‘</i>	tancha ko‘rpa+issiqlash	xizmat orqali qulay sharoit yaratish
<i>Tarelka tutmoq</i>	tarelka	zarur buyumni berish orqali qulay sharoit yaratish
<i>Paxta qo‘ymoq</i>	<i>paxta</i>	<i>xush (yumshoq) muomala</i>
<i>Soyasiga salom berish</i>	<i>soya+munosabat</i>	<i>hurmat+qo‘rquv, hadik</i>

*Puk berish, tag‘ofulg‘a solmoq, sad chekmoq, shodmarg ketmoq* frazemalari ham arxaik frazemalar hisoblanadi.

*Dumi qopqonda qolmoq* frazemasini “kalta kiyingan” ma’nosini ifodalab, erkak va ayollarga nisbatan qo‘llangan: *Ikkinchi tomondan ikkita dumi qopqonda qolg‘anlar ko‘zlarini to‘latib-to‘latib qaraydirlar-da* (DB, 118). Bu ibora orqali o‘sha davr dunyoqarashi, zamonaviy liboslarga berilgan baho haqida tasavvur beradi. Bu frazemaning muqobili hozirgi o‘zbek tilida uchramaydi, tushuncha birikma orqali ifodalanadi.

Lakunar frazemalarning aksariyati ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati bilan bog‘liq bo‘lib, voqelikni tavsiflashda, qahramonlarni tasvirlashda ta’sirchan va obrazli ifodalarni ta’minlagan.

**XULOSA**

1. Arxaizm va lakuna o‘zaro yondosh, bir-biriga aloqador hodisalar hisoblanib, umumiy va farqli belgilarga ega. Bu hodisalar eskirganlik bo‘yog‘ining mavjudligi, shevalarda, tarixiy-badiiy matnlarda uchrashi, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ishlatilmasligi bilan umumiylik hosil qiladi. Arxaizm va lakuna hozirda mavjud tushunchaning boshqa birlik bilan nomlanishi yoki nomlovchi birlikka ega emasligi bilan farqlanadi.

Arxaizmlar, asosan, ekstralingvistik omillar ta’sirida, tushunchaning boshqa birlik bilan nomlanishiga ko‘ra yuzaga keladi.

2. Lakuna hodisasi olamning lisoniy manzarasidagi nomlanmagan, bo‘sh o‘rinlarga ishora qiluvchi kognitiv-lingvistik, lingvokulturologik hodisadir. Bu hodisa turli tizimdagi tillar o‘rtasida, ayniqsa, tarjima jarayonida yaqqol namoyon boladi. Bir til doirasida adabiy til va sheva o‘rtasida intralingvistik omillar asosida yuzaga keladi. Ichki lakunalar tilni boyitish ehtiyoji yuzasidan tadqiq qilinadi.

Arxaizm va lakuna hodisasi realiya, muqobilsiz leksika, fon so‘zlari, neologizm, istorizm kabi hodisalardan “mavjud tushunchaning nomlanishi yoki yoki nomlanmasligi” bilan farqlanadi.

3. Jahon tilshunosligida arxaim hodisasi qiyosiy-tarixiy paradigmada amalga oshirilgan tadqiqotlarda tahlil qilingan. Istorizm hodisasi bilan yonma-yon holda o'rganilib, til lug'at tarkibining tarixiylik asosida o'zgarishiga oid masalalar doirasida ko'rib chiqilgan.

Lakuna hodisasining nazariy asoslari, dastavval, Alisher Navoiy tomonidan asoslangan. "Muhokamat ul-lug'atayn"da keltirilgan misollar tashqi lakunaning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

XX asrning ikkinchi yarmida lingvokulturologiya mustaqil soha sifatida shakllangandan so'ng lakuna hodisasining o'rganilish doirasi kengaydi. Xorijlik olimlar tadqiqotida, asosan, tashqi lakuna masalasi ilmiy asosda tadqiq etilgan. Tadqiqotlarda lakuna terminini keng va tor ma'noda tushunilish holatlari mavjud.

4. O'zbek tilshunosligida arxaizm masalasi hozirgi o'zbek tilining tarixiy qatlami sifatida o'rganilgan. Tarixiy leksikologiya, badiiy asar tili yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda tahlil qilingan.

O'zbek tilshunosligida lakunalar tadqiqi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar sanoqli. Tadqiqotlar lakuna hodisasining umumiy belgilarini yoritishga qaratilgan, chog'ishtirma aspektda tahlil etilgan. O'zbek tilidagi lakunar birliklar lug'ati yaratilgani soha doirasidagi yutuqlardan biridir. Lug'at va boshqa tadqiqot materiallari asosida o'zbek dialektal korpusi uchun ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan.

5. Tilning ijtimoiy vazifalarini belgilashda, kommunikativ xususiyatlarini tahlil qilishda badiiy asarlar manba sifatida xizmat qiladi. Yuksak tafakkur sohiblari tomonidan yaratilgan ijod mahsullari til hodisalari, xususan, arxaizm va lakunani aks ettirishda, arxaik va lakunar birliklarni aniqlashda muhim manba vazifasini o'taydi.

Abdulla Qodiriy asarlari arxaik va lakunar birliklarning axborot berish, hissiy-ta'sir etish vazifasi aks etgan badiiy matn sifatida ham qiymatga egadir. Adibning lisoniy qobiliyati, xalq jonli tilidan mahorat bilan foydalanishi, lug'atchilik faoliyati, tarjima bilan shug'ullangani, ijodkorlik mahorati asarlarida arxaik birliklar hamda adabiy tilda muqobili mavjud bo'lmagan lug'aviy birliklar ishtirokini ta'minlagan.

6. Arxaik va lakunalar vujudga kelishining lingvistik hamda ekstralingvistik omillari mavjud. Abdulla Qodiriy asarlaridagi bir qator leksemalarning hozirgi o'zbek adabiy tilida uchramasligi ijtimoiy voqelik, muhitning o'zgarishi natijasida, so'z yoki frazema ifodalagan tushunchaga ehtiyoj qolmagani, tushunchaning iste'moldan chiqishi, tushunchaning o'zlashma so'z bilan nomlanishi, nutqiy tejamkorlik, adabiy tilning umumlashtiruvchi qonuniyati asosida tushunchaning boshqa birlik orqali nomlanishi kabi omillar bilan izohlanadi. Bularning hammasi ham lakuna hodisasini namoyon qilmaydi, hozirgi adabiy tilda so'z bilan nomlanmagan tushuncha doirasidagina lakuna haqida so'z yuritish mumkin bo'ladi.

Arxaik va lakunar birliklar tahlili ayrim hollarda arxaik birliklarning lakunadan oldingi jarayon sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

Abdulla Qodiriy asarlarida o'zbek shevalari va adabiy til o'rtasidagi lakunar birliklar hamda ijodkor mahorati bilan bog'liq lakunar birliklar farqlanadi.

7. Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunar birliklar to'rt asosiy semantik guruhga birlashadi. Bu semantik guruhlarning romanlar va kichik hajmdagi asarlarda qo'llanish miqdori hamda faollik darajasi har xil. Romanlar va kichik asarlar tili arxaik hamda lakunar birliklarning uslubiy-semantik xususiyatlari bilan ham farqlanadi.

Arxaik birliklar romanlarda nisbatan ko'p miqdorda qo'llangan, lakunar birliklar, frazemalar, ijodkor tomonidan hosil qilingan so'z va iboralar kichik asarlar matnida ko'p uchraydi.

8. Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunar birliklar leksemalar, morfemalar, frazemalardan iborat. Arxaik va lakunar leksemalar sodda hamda murakkab bo'lib, sodda lakunar leksemalar tub va qo'shimcha orqali yasalgan leksik birliklardan iborat. Murakkab arxaik va lakunar leksemalar qo'shma birliklarni va forsiy izofa ko'rinishidagi yaxlit butunliklarni o'z ichiga oladi. Abdulla Qodiriy ijodidagi arxaik va lakunar frazemalar xalq tafakkuri, idroki, shuningdek, muallif iqtidori bilan bog'liq ravishda shakllangan. Arxaik frazemalar belgi-xususiyat, harakat-holat bilan bog'liq tushunchalarni ta'sirchan, obrazli ifodalashi bilan o'ziga xoslik kasb etgan.

Arxaik frazemalar hozirgi o'zbek tilida muqobiliga ega bo'lsa-da, uslubiy bo'yoqdorligi va semalariga ko'ra ajralib turadi.

9. Arxaik va lakunar birliklarning barchasida ma'lum darajada milliy-madaniy semalar mavjud bo'ladi. Har bir nominativ birlikda til sohibining idroki, tafakkur darajasi, madaniy qarashlari aks etadi va bu xususiyat lakunar birliklarda yuqori darajada namoyon bo'ladi.

Abdulla Qodiriy asarlaridagi arxaik va lakunar birliklarda ijtimoiy turmush tarzi, maishiy tushunchalar, milliy qadriyatlar bilan bog'liq milliy-madaniy semalar o'z ifodasini topgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR GRANTING ACADEMIC DEGREES AT  
ALISHER NAVOI TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK  
LANGUAGE AND LITERATURE, WITH THE SCIENTIFIC DEGREE  
AWARDING CODE DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01.**

---

**CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY**

**Bakhodirova Shakhlo Bakhodirovna**

**RESEARCH ON ARCHAIC AND LACUNAR UNITS IN THE WORKS OF  
ABDULLA QODIRI**

**10.00.01 – Uzbek language**

**ABSTRACT OF THE DISSERTATION FOR THE DEGREE  
OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) IN PHILOLOGY**

**Tashkent – 2025**

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered under number B2021.3.PhD/Fil1919 with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation of the Republic of Uzbekistan.

The dissertation was completed at Chirchik State Pedagogical University.

The abstract of the dissertation is available in three languages (Uzbek, English, and Russian (resume)) and has been published on the website of Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature at [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz), as well as on the "Ziyonet" information and educational portal at [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

**Scientific advisor:** **Xolmanova Zulkhumor Turdiyevna**  
Doctor of Philology, Professor

**Official opponents:** **Muhamedova Saodat Khudoyberdiyevna**  
doctor of philological sciences, professor

**Abdullayev Alisher Abdusalomovich**  
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

**Leading organization:** **Tashkent State University of Oriental Studies**

The dissertation defense will take place at the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 under the Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on 10 of 06 at 10<sup>00</sup> o'clock. (Address: 100100, Tashkent, Yakkasaroy District, Yusuf Khass Hajib Street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz); email: [monitoring@www.tsuull.uz](mailto:monitoring@www.tsuull.uz)).

The dissertation can be reviewed at the Information-Resource Center of the Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registered under number 358). (Address: 100100, Tashkent, Yakkasaroy District, Yusuf Khass Hajib Street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

The abstract of the dissertation was distributed on "2" 06 of 2025.  
(2025, "2" 06 2 number of the registry protocol).



**H.A. Dadaboyev**  
Chairman of the Scientific Council  
granting academic degrees,  
Doctor of Philology, Professor

**Q.U. Pardayev**  
Scientific Secretary of the Scientific Council  
granting academic degrees,  
Doctor of Philology, Professor

**S. Ashirboyev**  
Chairman of the Scientific Seminar of the  
Scientific Council granting academic degrees,  
Doctor of Philology, Professor

## INTRODUCTION (abstract of PhD dissertation)

**Relevance and necessity of the dissertation topic.** In global linguistics, identifying the intrinsic potential for national language development, effectively harnessing it, clarifying linguistic means of concepts, and analyzing interactions between literary language and dialects are considered essential prerequisites for improving the native language. Today, changes occurring in socio-economic and scientific-technical fields naturally manifest themselves within language. Societal progress inevitably facilitates the emergence of new concepts, vocabulary, and terminologies. International languages, which have developed the status of metalanguages, increasingly enrich the lexicons of many languages as verbal means of communication. Under such circumstances, preserving native lexical units, broadening their usage scope, and systematically defining linguistic tools within the national lexical framework become particularly relevant and necessary.

In global linguistics, research is conducted on the relationship between concepts and words, the expression levels of lexical and grammatical meanings, as well as the semantics of lexical units and grammatical forms. Ensuring the equivalence of linguistic units in intercultural communication, exploring untranslatable lexicon, and studying unnamed concepts within a conceptual framework are recognized as significant issues of anthropocentric linguistics. In various language systems, discrepancies between concepts and linguistic units, as well as inconsistencies in their linguistic representation, are observed. Such contradictions can be attributed to the differences in cultural development, social environments, worldviews, and value systems. The incomplete linguistic representation of concepts can also be observed within a single language, particularly between literary language and the vernacular. These inconsistencies are studied as the phenomenon of lacunae in linguistic and cultural studies.

In our country, the development of the Uzbek language and the enhancement of its prestige as the state language require enriching it through internal resources, activating and popularizing its native lexical layers. The formation of the Uzbek language is based on ancient foundations, and the modern nationwide Uzbek language encompasses not only literary units but also elements characteristic of spoken language and dialects. The Uzbek literary language has evolved over centuries under the influence of both internal and external developmental factors. Social and political realities, as well as economic and cultural progress, have manifested themselves at the lexical level, and the dynamic nature of this level has led to the adoption of Persian-Tajik, Arabic, Mongolian, Russian-international, and English-international words into the Uzbek language. In strengthening the status of the Uzbek language, it is of great importance to activate its native lexical strata, to promote them within the framework of the literary language, and to extensively use dialectal lexical tools to express concepts that are not represented in literary Uzbek. From this perspective, the phenomenon of lexical lacunae observed between the Uzbek literary language and its dialects, the archaic lexical units reflected in written sources and literary works, as well as the identification and promotion of lacunar elements, become an urgent and significant area of scholarly research.

This dissertation, to a certain extent, contributes to the implementation of the tasks set forth in the following normative legal acts: Presidential Decree (PD) No. PD-5850 of October 21, 2019, "On Measures for the Fundamental Enhancement of the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language"; Presidential Decree No. PD-6084 of October 20, 2020, "On Measures for the Further Development of the Uzbek Language and Improvement of Language Policy in Our Country"; Presidential Decree No. PD-6108 of November 6, 2020, "On Measures for the Development of Education, Upbringing, and Science in the New Era of Development of Uzbekistan"; Presidential Decree No. PD-60 of January 28, 2022, "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026"; Presidential Resolution (PR) No. PR-2789 of February 17, 2017, "On Further Improvement of the Activities of the Academy of Sciences, the Organization, Management, and Financing of Scientific Research"; and Presidential Resolution No. PR-3775 of June 5, 2018, "On Additional Measures to Improve the Quality of Education in Higher Educational Institutions and Ensure Their Active Participation in the Broad Reforms Being Carried Out in the Country", as well as other related normative and legal documents pertaining to this field.

**Compliance of the research with the priority areas for the development of science and technology in the Republic.** This dissertation aligns with the first priority area for the development of science and technology in the Republic: "Formation and implementation of a system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information society and democratic state."

**The Degree of Study of the Problem.** The role of archaisms in the language system, their social functions, and stylistic characteristics in literary texts have been explored extensively in world linguistics in the studies of N.Blake, D.Crystal, M.Johnson, J.Smith, A. Baugh, and T.Cable<sup>1</sup>. Russian scholars such as A.Sidorov, K.Shatilov, V.Kozlova, T.Ivanova, and Y.Petrov conducted research on the semantic-stylistic features of archaisms in the English language<sup>2</sup>. T.Korosteleva and Kh.K.Rakhimova have investigated the place of archaic units in Russian linguistics, particularly their role in literary language and characteristics in artistic texts<sup>3</sup>.

The issue of archaisms has been studied in Turkology as a layer of outdated vocabulary<sup>4</sup>. In Uzbek linguistics, this topic has been analyzed in the research

---

<sup>1</sup> Blake N. A History of the English Language. – London: Palgrave Macmillan, 1996; Crystal D. The Stories of English. – London: Penguin Books, 2005; Johnson M. Archaic Elements in Early Modern English Literature: Their Persistence and Function. PhD Dissertation, University of Oxford, 2008; Smith J. The Role of Archaic Lexis in Shaping English Literary Tradition. PhD Dissertation, Harvard University, 2012; Baugh A.C. & Cable T. A History of the English Language (6-e изд.). – New York: Routledge, 2013.

<sup>2</sup> Сидоров А.Н. Архаизмы в поэтике Шекспира: историко-лингвистический анализ. Дисс. ... канд. филол. наук. – М.: МГУ, 2010; Шатиллов К. Архаический английский или в начале было слово? // LiveJournal, 2015; Козлова Е.П. Функциональные аспекты использования архаизмов в современной англоязычной литературе. Дисс. ... канд. филол. наук. – Л.: Санкт-Петербургский государственный университет, 2014; Петров В.С. Архаизмы в англоязычной дипломатической корреспонденции // КиберЛенинка, 2018. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/arhaizmy-v-angloyazychnoy-diplomaticheskoy-korrespondentsii>; Иванова Т.А. Архаизмы в английской литературе // КиберЛенинка, 2020. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/arhaizmy-v-angliyskoy-literature>.

<sup>3</sup> Коростелева Т.В. Архаизмы как тропическое средство в современном русском литературном языке: лингвопрагматический аспект. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2015. – 21 с.; Рахимова Х.К. К вопросу о функциях архаизмов в современном русском языке // Молодой учёный, 2023. – № 48. – С. 498-499.

<sup>4</sup> Махмутов А. Архаизмы и историзмы в казакском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-та, 1963.

conducted by scholars such as B.Bafoyev, E.Begmatov, N.Husanov, N.Uluqov, N.O‘rmonova, S.Ziyotova, M.Matqurbonova, and U.Mo‘minova<sup>5</sup>.

Significant achievements have been made in the field of global linguistics, particularly in the study of dialectology, in researching dialects, explaining dialectal phenomena, and characterizing the importance of dialects in the formation of literary language<sup>6</sup>. In studies within the framework of anthropocentric linguistics, the reflection of cultural values, national thought, and perception in language has been substantiated.

The concept of the lacuna, which emerged and gained popularity in the second half of the 20th century, was initially substantiated as early as the 15th century by Alisher Navoi. The great thinker, by comparing the Turkic and Sart (Persian-Tajik) languages, demonstrated with factual examples that a word in one language does not always have an exact equivalent in another language.<sup>7</sup> In Western linguistics, particularly in the views of V.Humboldt and F.Saussure, there are also some considerations regarding "gaps" in language lexicons<sup>8</sup>.

The concept of lacuna, introduced into scientific discourse by Canadian scholars J.Vine and J.Darbelne, has been thoroughly studied in Russian linguistics<sup>9</sup>. Specifically, in the works of I.Sternin, the linguistic nature of the lacuna phenomenon and its observation within a single language have been acknowledged<sup>10</sup>. G.Bikova, on the other hand, analyzed the occurrence, types, identification, and other characteristics of lacunas using the Russian language as an example<sup>11</sup>.

In recent years, the phenomenon of lacunas in language has also received significant attention in Uzbek linguistics. Scholars such as D.Khudoyberganova, Sh.Usmanova, and Z.Kholmanova have shed light on the theoretical foundations of the

---

<sup>5</sup> Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985; Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент: Ёзувчи, 1996; Улуқов Н.М. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 298 б.; Зиётова С. “Меҳробдан чаён” асари лексикаси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2022. – 154 б.; Matqurbonova M. Abdulla Qodiriyning kichik janr asarlari leksikasining ma’naviy-uslubiy xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 24 с.; Mo‘minova U.Q. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari leksikasi. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Guliston, 2024. – 24 b.

<sup>6</sup> Оруджев А. А. Теоретическое обоснование к “Толковому словарю азербайджанского языка”. Автореф. дисс... док. филол. наук. – Баку, 1962. – 45 с.; Скворцов Л. И. Взаимодействие литературного языка и социальных диалектов (на материале русской лексики послеоктябрьского периода). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1966. – 18 с.; Кайдаров А. Т. Уйгурские диалекты и диалектная основа литературного языка. Автореф. дисс... док. филол. наук. – Баку, 1969. – 150 с.; Сат Ш. Ч. Формирование и развитие тувинского национального литературного языка. – Кызыл, Тувкнигоиздат, 1973. – 196 с.; Безносикова Л. М. Роль диалектной лексики в формировании словарного состава Коми литературного языка. – М.: Наука, 1985. – 110 с.

<sup>7</sup> Xolmanova Z. Alisher Navoiy-lingvokulturologik tushunchalarning ilk tadqiqotchisi sifatida /“Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi o‘rni”. Xalqaro konferensiya (Toshkent, 2019-yil 4-6 fevral) materiallari. – Toshkent, 2019. – B.441-445; shu muallif. Alisher Navoi’s views regarding to lingvokulturology // International journal “Anglisticum”. Literature, linguistics & Interdisciplinary studies, 2019. – P. 59-64; shu muallif. Role of Alisher Navoi in the development of modern linguistics. – Korea, 2021. – № 08; shu muallif. Alisher Navoiyning zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotidagi o‘rni // Alisher Navoiy. Xalqaro jurnal. Volume 1. Issue 2, 2021. – № 9-18. – P. 9-18.

<sup>8</sup> Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М., 1985. – С. 300-304; Ф. де Соссюр. Умумий тилшунослик курси (Француз тилидан И.Мирзаев таржимаси). – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б. 133-134.

<sup>9</sup> Vinay J., Darbelnet J. Stylistique comparee du francais et de l’anglais. – Paris, 1958. – P.10

<sup>10</sup> Стернин И.А. Лексическая лакунарность и понятийная безэквивалентность. – Воронеж, 1997. – С. 18.

<sup>11</sup> Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. – 276 с.

lacuna phenomenon<sup>12</sup>. A.Hasanov, N.Ismatullayeva, D.Tolipova, and B.Suyunov have conducted monographic research on the issue of internal and external lacunas<sup>13</sup>.

The development characteristics of the Uzbek language in the early 20th century have been highlighted in research<sup>14</sup>. The study of the linguistic features of literary works forms the basis of traditional linguistic analysis. In particular, the evaluation and analysis of Abdulla Qodiriy's works began on a large scale in the 1970s<sup>15</sup>. Initially, H.Yoqubov, followed by B.Imomov, H.Abdusamatov, A.Quljonov, M.Qoshjonov, U.Normatov, and B.Karimov, among others, provided various assessments of the writer's works. In the field of literary studies, the research conducted has also highlighted Abdulla Qodiriy's skill in utilizing the linguistic potential of the language. F. Nasriddinov's work *"The Gleam of Mastery"* particularly focuses on Abdulla Qodiriy's writing skills. The artistic nature of Abdulla Qodiriy's works has been analyzed in various studies.

Monographic studies have been conducted on various aspects of Abdulla Qodiriy's works, including lexical, morphological, syntactic, and other features of his language. In particular, research by scholars such as X.Qahharova, A.Qahramonov, Z.Choriyeva, L.Jalalova, X.Kadirova, S.Ziyotova, and E.Abdurazzoqov<sup>16</sup>, as well as

---

<sup>12</sup> Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан д-ри дисс. – Тошкент, 2015. – 246-б.; Xolmonova Z., Saidahmedova O., Nurillayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. – Toshkent: Navro‘z, 2018. – 94 b.; Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (darslik). – Toshkent: Universitet, 2019. – 246 b.

<sup>13</sup> Ҳасанов А Ўзбек адабий тилидаги лексик лакуналарнинг диалектал асослари. Филол.фан. б. фалс. док. (PhD) дисс.– Тошкент, 2021. – 167 б.; Исматуллаева Н. Хитой ва ўзбек тилларида лакуналарнинг воқеланиши. Филол.фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. автореф.– Тошкент, 2021. – 52 б.; Толипова Д. Лексические лакуны в узбекском и русском языках. Дисс. док. филос. (PhD) по филол. наук. – Ташкент, 2023. – 133 с.; Suyunov B. O‘zbek tili lakunar birliklari semantikasi va tezaurusi. Monografiya. (Tibbiy terminlar misolida). – Toshkent, 2024. – 70 b.

<sup>14</sup> Умаров Э. Фитрат ва тилшунослик атамалари // Маърифат. – Тошкент, 1996, 23 октябрь; шу муаллиф. Чўлпон тил ва имло ҳақида // Тил ва адабиёт таълими. –Тошкент, 2001. –№6. – Б.48-52; шу муаллиф. Чўлпоннинг тил ва имло конференцияси қарорларига муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2003. –№ 4. –Б. 42-45.; Аширбоев С. Ўзбек тили морфологик қурилишининг ўрганилиш тарихидан (1875-1917 йиллардаги рус туркологлари асарлари асосида). Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1975. – 23 б.; Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.; Қодиров Қ. Ўзбек тили морфологик тизимининг ўрганилиш тарихидан (20-йиллар ўзбек тилшунослиги материаллари асосида). Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2007. – 24 б.; Янгибоева Н. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни (“Маориф ва ўқитгучи” журнали материаллари асосида). Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Қарши, 2019. – 47 б.

<sup>15</sup> Насриддинов Ф. Маҳорат жилolari (рисола). – Тошкент: Билим жамияти, 1974; Ёқубов Ҳ. Ўйрик санъаткорнинг тўнғич романи. –Тошкент, 1987; Имомов Б., Қулжонов А. Реализм ва романтизм. Ижодий метод ва услуб. – Тошкент: Камолот, 1989; Қўшжонов М. “Ўткан кунлар” бошидан ўткан кунлар // Ҳаёт ва қаҳрамон. – Тошкент, 1979; Норматов У. Қодирий боғи. Абдулла Қодирий ҳаёти ва ижоди ҳақида. –Тошкент: Ёзувчи, 1995; шу муаллиф. “Ўткан кунлар” ҳайрати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 86 б.; шу муаллиф. Қодирийнинг сўнги илтижоси. – Тошкент: Movarounnahr, 2014. – 62 б.; Қаҳрамонов А. Абдулла Қодирийнинг “Меҳробдан чаён” романи поэтикаси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 136 б.; Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси (қодирийшунослик мисолида). Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 44 б.; шу муаллиф. Янгиланиш соғинчи. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2004. – 79 б.; шу муаллиф. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил, талқин. – Тошкент: Фан, 2006. –210 б.

<sup>16</sup> Каххарова Х. Фразеология Абдулла Кадыри. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 28 б.; Бобониев А. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадийи. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995. – 24 б.; Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 24 б.; Жалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2007. – 122 б.; Кадирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2012. – 126 б.; Зиётова С. “Меҳробдан чаён” асари лексикаси. Филол.фан. б. фалс. док. (PhD) дисс.– Тошкент, 2022. – 154 б.; Abdurazzoqov E. Abdulla Qodiriy romanlari tilining o‘ziga xos xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. –Toshkent, 2023.

articles by O.Lafasov and M.Abdiyev, have focused on revealing Abdulla Qodiriy's art of word usage and his mastery in utilizing the possibilities of the Uzbek language<sup>17</sup>. S.Normamatov analyzed Abdulla Qodiriy's lexicographic activity<sup>18</sup>. Z.Qosimova highlighted the semantic features of the realities in the Uzbek language using "Otgan kunlar" as an example<sup>19</sup>. The writer's creative work and word usage skills are reflected in the conference materials<sup>20</sup>.

